

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 11 - 17 - dekabr N:50 (66591)

Muassislar:


O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

AHILLIK BOR BO'LSIN!



2-BETDA PUL QAYERDAN KELADI?



7-BETDA MAKTABDA MISH-MISH...



8-BETDA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI



IV BOB TASHQI SIYOSAT

17-modda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'yektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

IKKINCHI BO'LIM INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI V BOB UMUMIY QOIDALAR

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

20-modda. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Saboq

Mana, choraklar yakunlanishiga ham oz fursat qoldi. Bu paytda qaysi o'quvchi puxta bilim olib, reyting daftarchasini a'lo baholarga to'ldirishini xohlamaydi, deysiz... Ammo shunday do'stlarimiz ham borki, ular bilimdan ko'ra bahoni ustun qo'yadilar.

Sinfimizda Nodira ismli qiz bo'lardi. Darslarda javob berish, uy vazifalarini bajarishda boshqalardan ortda qolardi. O'qituvchimiz qanchalik jon kuydirib o'rgatmasin, u to'rtinchi sinfgacha ham o'zgarmadi.

Bir kuni darsda o'tirganimizda, eshik taqillab qoldi. Tashqariga chiqqan o'qituvchimizning uzoq vaqt qolib ketganidan sinfda to'polon boshlandi. Faqat Nodiragina hech kimga indamas, hadiksirab tashqaridan kelayotgan shovqinga quloq tutardi.

—Men hech qachon qizimni xo'rlatib qo'ymayman. Bolasiga yaxshi baho qo'yishni hamma ham biladi. Shu ishing uchun ishdan haydatmasammi...

Bu ovozni eshitib, hammamiz jim bo'ldik, keyin ichkariga qo'shni xonada dars berayotgan o'qituvchi sinf rahbarimiz bilan urishayotgan ayolni boshlab kirdi.

BILIMMI YOKI BAHO?..

U Nodiraning onasi Sharofat opa ekan. Ma'lum bo'lishicha, reyting daftarchasini imzo qo'ydirishga olib borgan qizining past baholarini ko'rib, qattiq koyibdi. Unga chiday olmagan Nodira ham o'qituvchimizning unga doim yomon baho qo'yishini aytib yig'labdi. Xullas, bu masalada ancha tortishuvlar bo'ldi. So'ng, ko'pchilikning taklifiga binoan o'qituvchimizning qizi bilan Nodiraga bir xil savollar berib, sinab ko'rildi. Natijani ko'rgach, haligi ayol qizining qo'lidan tortqilay ketdi:

—Yur, ketdik bu yerdan, juda bilimdon bo'lmasang ham mayli, seni boshqa maktabda o'qitaman.

Keyin u chindan ham qaytib kelmadi. Keyinchalik uning boshqa maktabda o'qiyotganini, 9-sinfni yakunlaganidan so'ng o'qishni davom ettirmaganini eshitdik. O'qituvchimizning qizi Dilfuza esa institutda ham a'lo baholarga o'qiyapti.

Yaqinda Nodiraning onasini ko'rib qoldim. O'sha voqealardan haligacha afsuslanishini aytdi.

—Aslida maktabdan Nodirani olib ketib bekor qilgan ekanman, hech narsa o'zgarmadi. Qaytaga, qizimni o'qishga bo'lgan ishtiyoqini ham so'ndirib qo'ydim, - dedi xo'rsinib.

Bu gaplardan keyin baho hech narsani hal etmasligini, asosiysi, olingan bilim ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Shahnoza TESHABOYEVA, talaba.



Men o'zbekcha kuylaganda,
Ovozimni qo'yvordim.
Bobolarim, momolarim,
Orzusini tuyib bordim.

Biz istiqlol farzandlari,
Iqbolimiz - bilimda!
Ilm-u urfon bilan mangu,
Tinch-totuvlik elimda!

IQTIDORLI BOLALAR KELAJAGIMIZ!

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 241-maktabda «Iqtidorli bolalar bilan ishlash» mavzusida shahar seminar treningi o'tkazildi. Ushbu seminar treningda yetakchi psixologlar, tuman tashxis markazi rahbarlari va ta'lim maskanlarining amaliyotchi ruhshunoslari ishtirok etdilar. 241-ta'lim maskanining oliy toifali psixologiya fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Muharram Irmuhammedova tomonidan tuzilgan «Iqtidorli bolalar bilan ishlash» mavzusidagi seminar trening ssenariysi yig'ilganlarda katta

qiziqish uyg'otdi. Unda iqtidorli bolalar bilan ishlash nazorati, monitoringi, xilma-xil testlar, asosiy hujjatlarni yuritishga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu seminar treningda mazkur maktabning 11 nafar iqtidorli o'quvchilari o'zaro bellashdilar. Bolajonlar ijrosidagi sahna ko'rinishlari, qiziqarli savollarga bergan burroburro javoblari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, tadbir qatnashchilari bilan bo'lib o'tgan maroqli suhbatlar, munozaralarning bosh maqsadi ham aynan bolajonlarda iqtidorni shakllantirish mavzusiga qaratildi. Iqtidorli bolajonlarimizning har tomonlama kamol topishlari, hayotda o'z o'rinlariga ega bo'lishlarida maktab ruhshunoslarining ham o'ziga xos o'rni borligi ta'kidlandi. Bellashuv g'oliblari «Faxriy yorliq»lar va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Nuriddin AKBAROV.



QISHNING «ZAVQI»

Zaminimiz oppoq qorga belanib, chor-atrofdagi qish zavqi kezoqda. Ayniqsa, deraza oldida o'tirib, qorning bo'ralab yog'ishini tomosha qilish naqadar zavqli-a? Ana shunday zavqni ko'nglimga tuyib, vaqt tez o'tib ketganini ham bilmay qolibman. Darhol kiyindim-u, o'qishga otlandim. Yo'lda shoshib ketayotib, qarama-qarshi tomondan bir to'lda bolalarni kelayotganini ko'rdim. Ular menga yaqinlashganda, bir bola qo'lidagi dumaloqlangan qorni men tomonga otdi. Zarb bilan otlangan qor yuzimga shunday tegdi-ki, og'riq zarbidan ko'zimdan yosh chiqib ketdi. Yuzimni changallaganimcha, to'xtab qoldim. Bolalar esa, qish kelsa rosa mazza qilamanda, ayniqsa, qizlarni qorbo'ron qilganda, deganicha yo'llarida davom etishdi.

Og'riq biroq pasaygach, yo'limda davom etdim. Darsga yuzim qizargan holda kirib bordim. O'sha kuni dars ham qulog'imga kirmadi, hisobi. Ertasi kuni Madina ismli dugonam qulog'i og'riyotganini aytdi. Sababini so'rasam, uni ham bolalar yo'lda qorbo'ron qilishibdi. Hayronman, ayrim bolalar ichiga muz solingan qor bilan boshqalarni urib, qanday zavq olishar ekan-a?

Dilfuza MAHKAMOVA,

O'ZMU jurnalistika fakultetining 1-bosqich talabasi.

Yangiyer shahar Xalq ta'limi bo'limiga o'rinni egalladilar.

qarashli 3-son o'rta umumta'lim maktabida 760 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularga 51 nafar malakali o'qituvchilar fan sirlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Bir qarashda boshqa maktablardan farqi qilsa arzigulik ishlari bir talay ekan.

Mavjud 27ta fan to'garagi o'quvchilar bilan gavjum. Shu bois ham keyingi to'rt yil davomida ta'lim maskani o'quvchilari shahar fan olimpiadalarida faxrli I o'rinni egallab kelishmoqda. Maktabning rus tili fani o'qituvchisi V. Rahmatullayeva «Yilning eng ilg'or fan o'qituvchisi» ko'rik-tanloving shahar va viloyat bosqichlarida I o'rinlarni, respublikada esa III o'rinni egalladi. Huquq fani o'qituvchisi N. Rahimjonova, fizika fani o'qituvchisi D. To'lanova, boshlang'ich sinf o'qituvchisi G. Usmonovalar shahar bosqichida I-, viloyatda esa II o'ringa sazovor bo'lishdi.

Voleybol, shaxmat-shashka, basketbol to'garaklarida muntazam ravishda shug'ullanayotgan bolajonlar «Umid nihollari» sport musobaqasining shahar bosqichida faxrli II

Ta'lim maskani qoshida «Sevinch» raqs guruhi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Guruh rahbari Hulkar Ahmadjonovadan raqs sirlarini o'rganayotgan

Diyora Arabboyeva, Zarina Zaynitdinova, Mubarak Ilhomova, Rohila Tojiboyeva, Shahnoza Po'latova, Dilshoda Ungarova, Farruh Amirov, Iroda Isoqova kabi o'quvchilarning jozibador xiromlarini ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. O'zbekcha, hindcha, turkcha raqslarni berilib ijro etayotgan Sevara Asanova 5 yoshda ekan. Ammo qizaloqning betakror harakatlari malakali raqqosalarnikidan qolishmas ekan.

Ta'lim maskani direktori Halima Rahimjonovaning sa'y-harakatlari bois maktab zamonaviy jihozlar bilan yetarlicha ta'minlangan. Chor-atrofi gul-u gulzor, mevali va manzarali daraxtlarga burkangan.

Erishilayotgan barcha muvaffaqiyatlarning asl negizi maktab jamoasining hamjihatligida desak, aslo adashmaymiz.

Salimjon INOMZODA.



QISHLOG'IMIZGA

BIR KELING!

Qishlog'imizning nomi Qarnabota bo'lib, uning tarixi uzoq-uzoqlarga tarqaladi. Uning tarixini yaxshi bilmasam-da, juda yaxshi ko'raman. Men kelajakda shifokor bo'lishni, keyin albatta qishlog'imizda faoliyat ko'rsatishni xohlayman. Chunki aksariyat hamqishloqlarimiz shaharda qolib ketishyapti. O'zlari unib-o'sgan yurt esa mutaxassisiz qolmoqda.

Aziza SATTOROVA,

Samarqand viloyati, Paxtachi tumani.

SHAHARLIKLARGA MAZZA EKAN...

Men hozirda shahardagi barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan maskanda tahsil olayotganimdan behad xursandman. Ammo hamqishloqlarim o'qiydigan Namangan viloyati, Pop tumanida joylashgan 3-o'rta maktab esa hali ham eskicha ko'rinishda. Kapital ta'mirlanish rejada bo'lsa-da, bugungi kunda ukalarim sovuq sinfxonalarda, laboratoriya xonalari yo'q sharoitlarda tahsil olishyapti. Men qishloq bilan shahar o'rtasidagi tafovutning yo'q bo'lishini, bilimga chanqoq qishloq bolalari ham zamonaviy maktablarda tahsil olishlarini istardim.

Osiyo JAYLOBOVA,

Alisher Navoiy nomidagi nafis san'at litseyining 8-sinf o'quvchisi.

SIZ HUQUQNI BILASIZMI?

O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 14 yilligi munosabati bilan maktabimizda ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

Jonkuyar ustoz Marhabo Tog'ayeva o'z ma'ruzasi orqali konstitutsiyamiz - baxtimiz qomusi ekanligini yoshlarga sodda, ravon qilib tushuntirishga intildi. So'ngra, o'quvchilar o'rtasida Prezident asarlari to'g'risida savol-javoblar bo'lib o'tdi. Vatandarparvarlik ruhida o'tgan tadbir hammaga ma'qul bo'ldi.

Tanzilav ASHUROVA,

Qashqadaryo viloyati, Muborak tumanidagi 4-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi.

QOMUSIMIZ - NOMUSIMIZ

Kuni kecha maktabimizda Konstitutsiya kunini tantanali nishonladik. O'quvchilarimizdan Roza Yamilova, Sodir Rahimovlar o'zlari tuzgan Konstitutsiyaga oid boshqotirman o'quvchilar hukmiga havola qilishdi. Boshqotirmaga boshqa mamlakatlar konstitutsiyasi haqidagi savollar ham kiritilgan edi. Tadbir so'nggida o'quvchilar ishtirokida konsert nomerlari namoyish etildi.

To'xtasin RO'ZIYEV,

Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 14-musiqqa maktabi direktori.



DADAM

Dadam usta o'z ishiga,
So'zi o'tar yuz kishiga.
Mehnatda o'tgan yoshligi,
Hozir brigada boshlig'i.
Shuning uchun ishi unar,
Duradgorlik yaxshi hunar.
Topishib izzat-ikrom,
Yasashgani eshik-rom.
Dadamga shogird tushdim,
Hunar debon kuyib-pishdim.

HORMANG, DEYMANI



Dadam ishdan kelganda,
Uy quvonchga to'lganda.
O'xshab katta odamga,
Hormang, deyman dadamga.
Barakalla, der dadam,


16

Qop qanorim
Toshib ketdi,
Normadan ham
Oshib ketdi.
Meni ko'rib
Lol qolishdi,
Zo'rsan-ku, deb
Gap solishdi.
Dehqon ko'nglin
Chog' etdim men,
Paxtalarni



Tog' etdim men.

G'olib chiqib
Ko'p boladan,
Oqshom qaytdim
Keng daladan.
Hasharchilar
Bizda bor-da!
«Oq paxtamiz»
Qolmas qorda.
Deb ustozlar
Maqtay-maqtay,
Obro'yimni etdi mixday.



15

Po'lat mayda
G'ildiragi bilan,
Yo'l tekislaydi,
Kuragi bilan
(Muzlatgich)

30

Har xonaning
Ko'rk-chiroyi,
Devor, yerda
Uning joyi.
(Ekskovator)


Elga manzur
Ish bilan,
Yer gazidi,
Tishi bilan.
(Sandiq)

Ichida mol-mulki,
Ustida og'ir yuki.
(Gilam)

Ko'zlab transport,
Odamlar foydasin,
Ko'rsatib turar,
Yo'l goidasin.
(Buldozer)

DO'ST BO'LAY

Keling do'stlar, tengqurlar,
Urush-urush o'ynamaylik.
Asir tutib bir-birimiz,
Sira-sira qiynamaylik.
Qo'limizni berib qo'lga,
Do'st bo'lishib yuraylik.
Do'stlik katta kuch, ekanin,
Jahonga jar solaylik.



8

Sizlar bilan
Do'st bo'lay.
Don sepib
Mehmon qilay.
Arpa-bug'doyim
Yeb ketinglar,
Menga rahmat
Deb ketinglar.
Quloq solsangiz
Agar so'zimga,
Siz kerakdarsiz
Mening o'zimga.
Devordan tushib
Yayrab yuring,
Gulzorimda
Sayrab yuring.
Oppop qishga ham
Qolsangiz mayli,
Yaratay sizga
Tinch yashash joyini.

23



24

Mahallamiz bolalari,
Qizg'aldoq lolalari.
Yozni bekor o'tkazmayin,
Vaqtini ham ketkazmayin.
Qolmaylik deb armonda,
Tuzishdi futbol komanda.

Taxta, panerdan
Erta-indin,
Qurib beraman
Kat-ta in!

ATTANG-A



7

Bizga yer-u osmonimiz,
Tinch bo'lsa bas.
Yaratuvchi xalq yashar,
Tinchlikka qilib havas.

Atom bomba qurollarin,
Yo'q qiling, deb qo'yamaymiz.
Butun dunyo bolalari,
Tinch yashashin o'ylaymiz.



Bizlar tinchlik tarafdori,
Nomi o'chsin urushning.
Ko'p o'yladi:
Kim o'rgadi,
Odam zotini qirishni?

TINCH YASHASHNI ISTAYMIZ

qirg'ish chizig'i



Tursunxo'ja ORTIQXO'JAYEV
Qozog'istonning Chimkent viloyatida
yashaydi. Qator nabiralarning bobosi,
zavodda ishlagan. Qolaversa, 7-8 hajmda
ma'lumotlar faqat zavod-u fabrikalarda
oddiy ishchi bo'lib ishlashardi-da!
O'qishga sharoiti yo'q bu inson o'zi
o'qib, farzand-u nabiralari uchun she'r
to'qib, shoir bo'lib qolibdi. Tursunxo'ja
boboning she'rini o'qib, o'zingiz ham
bunga guvoh bo'lasiz.



Endi sen katta odam!
Shirin so'zing shod etdi.
Charchog'im tarqab kerdi.
Ol galpog'im, osib qo'y,
Kel, belimni bosib qo'y!


OLAPAR

Kuchugim bor qopag'on,
Bekinsam gar topag'on.
Bir odati yomon-da,
Uxlab yotsam ayvonda.
Ko'rgan uchun tortadi,
Xirillab uyg'otadi.
Uyga tekin qorovul,
O'g'ridan holi ovul.
Chopib borar bir odam,
Eshkni taqillatsa.
Qopib olar begona,
Yoniga yaqinlashsa.
Tinch yotmaydi tunlari,
Uxlar kunduz kunlari.
Dersiz qayda uyquni,




17

HASHARCHILAR



Esib mayin
Shabboda yel,
Kun chiqmayin
Dalada el.
Go'yo ko'chgan
Butun shahar,
Paxtazorda
Bugun hashar!
Qo'shilib ko'p
Qiz bolaga,
Men ham chiqdim



Bo'z dalaga.
Men bo'sh kelmay
Charchash bilimay,
Ishga solib
Bor kuchimni.
Ado etib
O'z burchimni,
Paxta terdim
Engashib men,
Sardorlarga
Tenglashib men.

14

qirg'ish chizig'i

Kinga kerak, aying axir,
Urush, janjal, to'polonlar.
Yaxshi tartibga o'rganaylik,
Birlashib xo'p, qiz-o'g'lonlar!

Urush «qirg'in» qurollarin,
Orzulaydi, yuragi yo'q.
Qurullangan bolalarini,
Bizlarga hech keragi yo'q.

AVAZ

Qo'shim Avaz
Qiziq bola,
Ta'bi juda
Nozik bola.
Bir podyezdda
Uy-joyimiz,
Bir yon borsa
Gar oyimiz.
Meni ham, der
Boring boshlab,
Boraman, der



9

Qani, tushinglar
Yaqin oldimga.
Keng, chiroyli,
Salqin hovlinga.



22

!ZIMYVTSI IMSHVSVX TINCH



2006-yil
Tong yulduzi "izutubxonasi"



Kinga kerak, aying axir,
Urush, janjal, to'polonlar.
Yaxshi tartibga o'rganaylik,
Birlashib xo'p, qiz-o'g'lonlar!

Urush «qirg'in» qurollarin,
Orzulaydi, yuragi yo'q.
Qurullangan bolalarini,
Bizlarga hech keragi yo'q.

AVAZ

Qo'shim Avaz
Qiziq bola,
Ta'bi juda
Nozik bola.
Bir podyezdda
Uy-joyimiz,
Bir yon borsa
Gar oyimiz.
Meni ham, der
Boring boshlab,
Boraman, der



9

Qani, tushinglar
Yaqin oldimga.
Keng, chiroyli,
Salqin hovlinga.



22



52

Shunda el-yurt.
Balli, deydi
Kamtarin tut,
Ham o'zingni
Sodiq do'sting!
Shunda ortar
Shirin bo'lsin!
Tiling doim
Sen kam bilma!
O'zgalarni
Kanda qilma,
Salomingni
Bag'ritoshga.
O'shamasdan
Qari-yoshga,
Ko'zing tushsa
Xandon yursang.
Bayram, to'yda
Omon yursang,
Ko'cha-ko'yda
Yomon so'zing?
Kimga yoqar,
Obdon o'zing:
O'ylab ko'rgin

Dala-bog'larni kezdik,

Ancha sang'ib ham yurdik.

Maslahat ham qilishdi,
Keyin ishga kirishdi.

Sinab ko'rib baxtlarin.
Qat'iy edihdlari,

«G'ayrat»ga bir-u nolga yutildik.
Yulqizsak ham rozimiz,
Bekor o'lmadi yozimiz.

Kelasi yil rejamiz katta,
Qozog'iston chempioni bo'lamiz, albatta.

TOPISHMOQLAR

- O'zi oppoq
- Qor quti,
- Sut qaymog'i
- Bor quti.
- Go'sht-u yog'ni
- Qo'ysang joylab,
- Buzmay saqlar
- Hafta-oylab,
- (Svetofor).

29


TUSHLIK

Tushlik qildim
Mazza qilib,
Dasturxonni
Toza qilib.

Olma-yu nok
Yedin rosa,
Tarvuzni-chi,
Qildim kosa.

Qarang, qanday
Men ahmoq,
Choy ham ichdim
Yeb qaymoq.

Dasturxonda
Yedin borin,
Mana endi
Og'rir qorin.



2

qirg'ish chizig'i

KO'P YEMA

Bir piyola
Murabboni,
Yeb to'ymadin,
Yana, oyi,
Bering ko'proq,
Deb qo'ymadim,
Ko'p yemagin,
Dedi oyim.



Isimang chiqib,
Yurma toyib,
Isimam chiqsa,
Yechinaman.
Non bilan men
Choy ichaman.

ONA O'GITI

Xursand bo'lsin
Desang oyim,
So'zlarimga
Kirgin doim!

5

Bir yalanglikni sezdik.

Futbol maydoni uchun,
Ayamay aslo kuchin.

Kirishib ketdik ishga,
Hatto chiqmasdan tushga.

Komandamiz katasi Omon,
Kim himoyachi darvozabon.

Hech qaramay ra'yimizga,
Qo'yib qo'ydi joyimizga.

Omon qatigqo'l edi,
O'yinda epchil bo'l, dedi.

Biz ham hech bo'sh kelmadik,
Charchash nima bilmadik.

Ko'p ortirdik tajriba,
Yomon bo'lmadi natija.
Mahalla komandalarin yutdik,

26

18

Qayda ko'rsam
non ushog'i,
Qoqib -suqib
chang tuprog'in.

Obro'larin
to'kmasin deb.

so'kmasin deb,
Bolalarni

Bo'lmasin deb
uvoli.

Chumoliman
chumoli,

ITOMUHCH

Bilmas bu Olapar
Ola qashqa.
Oldiga borolmas
Mendan boshqa.

13

Oyim tuzalib ketar,
Hammadan ham baxtli u.
Dilda mehrim borimdan,
Olib kelgan dorimdan.

Bor dorini topaman.
Tongmi, tushmi g'izillab,
Aptekaga chopaman.

Kuni o'tmas ayronsiz.
Ichgani suv, sut-u qatig.

Ikki haftadan ortiq,
Men ulardan kattaman!

Sira bilmay bahona,
Ukamni ham o'ynataman.

Kelsa qo'limdan,
Ne ish bo'lsa, qilaman,

Jon-u dilimdan,
Men oyimni sevaman.



MEN OYIMNI SEVAMAN

12

Qushlar, hey,
Yomg'irda ezilgan
Qushlar, hey.

Devorga tizilgan
Qushlar, hey.

ham qo'ydi,
Ba-balashimi

Bilib oldim
men o'zim!
Suvzar ekan

to'ydi.
Suvni ichib qorni

bir papir.
Suv keltirdim

so'ng oxir,
Xayollanib

Yig'lay berar
Ko'zin yoshlab.

YATSHUB

MEN MAKTABGA BORDIM

10

Papkam osib yelkaga,
O'shamay hech erkaga,
Olib kerak buyumimni.
Kiyib yangi kiyimimni,
Akam-opam ketidanop.


Yoshim o'tdi yettidanoq,
Kelgach oltin kuz fasli.
Mavsumlarning eng asli,

Olib yursin!
Katta so'zin
Esi kirsin,
Avazlarning
Bolalari.

Tinglashaydi
Onalari.
Bir so'z desa
Kim uyat der.
Kim kuladi,
U tepib yer,

Yig'lay berar
Ko'zin yoshlab.

Yig'lay berar
Ko'zin yoshlab.



Yarat deb
bir kunimga,
Tashib kiraman
uy-ningga.

Og'zingga ilinganin
tishlab tortaman,
Rizqi- ro'zinni
ishlab topaman.

Yalqov, dangasalik
menda yo'o'q,
Qishi bilan
qorrim to'o'q,

Mehnat qilgan
tishlaydi,
Chumoli xalqi
ishlaydi.

Mehnat qilgan
xor bo'lmas,
Hech kimsaga
zor bo'lmas.



19

UCH KO'ZLI CHIROQMAN

Mening uchta ko'zim bor,
Har biriga so'zim bor:
Uzoqlarni ko'raman,
Yo'l ko'rsatib turaman.

Qizil ko'zim yonsa gar,
To'xta, yo'lida xavfim bor.
Sariq ko'z yondi, deylik
Yo'l o'tish g'amini yeylik.

Xavf-u xatardan saqla,
Imo-ishoram oqla.
Ko'k chirog'im kutib tur,
Yonganida olg'a yur.

Men uch ko'zli chiroqman,
Xavf-xatardan yiroqman.
Katta-kichiklar bilan,
Shuning uchun inoqman.

12

qirgish chizig'i

O'zimda yo'o'q shodlandim,
Maktab tomon o'lardim.

Xullas, mening
G'amim yeb,
Besh bahoga o'qi, deb,
Buvim og yo'l tiladilar,
Peshonamni siladilar,

Gullar tutib qo'limga,
Qarab o'ng-u so'limga.
Dilga orzular soldim,
Maktab tomon yo'l oldim.

Do'stlarim qo'l in ushlab,
Shirin so'z-la dil xushlab.
Kirib bordim maktabga,
Turdim qo'shib safga.

Dilim to'ldi quvonchga,
Orzularim eh, qanchal!
Ko'pdan niyat-havasim,
O'qishga zo'r ixlosim.

«Besh» bahoga o'qishimni,
Elga hissam qo'shishimni,
O'ylab dilim jo'shadi,
Bo'yimga-bo'y qo'shadi.



11

QO'ZIM

Yolg'on emas,
Chin so'zim.
Sezib qoldim,
Men o'zim.

Oxur to'la
Cho'p, bedaga,
Tekkan edi
Ko'p me'daga.

Qorib bersam
Yemaydi,
Ba-ba-balab
Timmaydi.

Qo'y-qo'zimning
G'amini yeb,
Nima qilsam
Ekan deb.



20

28

Shunda ham oson qutulsin,

Lekin unday bo'lmasi,
Ko'nglimiz o'yinga to'lmasi.

Qaydan darvozabon ushladi,
To'g'ri to'rga tushardi.

Rosa qattiq tepgandim,
Ko'zlagan maqsadimga yetgandim.

Ado etib burchimni,
Ishga solib bor kuchimni.

Alam qildi, attang-a,
Bo'limganda eh shtanga.

Tepgandim oyog'im egib,
Ustumiga ketdi tegib.

Qoyil qoldim senga,
To'p oshirgandi menga.



3

iching choyni.

Siz o'tirib
to'rga joyni.

Endi so'zim,
Yerda qolmas

Shirinlikka
yaqin o'zim,

Xizmat qilay,
O'z-o'zimga

Avval, sizni
izzat qilay,

Javob kerak,
Oyi, Sizdan

SAVOB KERAK

O'zimda yo'o'q shodlandim,
Maktab tomon o'lardim.

Xullas, mening
G'amim yeb,
Besh bahoga o'qi, deb,
Buvim og yo'l tiladilar,
Peshonamni siladilar,

Gullar tutib qo'limga,
Qarab o'ng-u so'limga.
Dilga orzular soldim,
Maktab tomon yo'l oldim.

Do'stlarim qo'l in ushlab,
Shirin so'z-la dil xushlab.
Kirib bordim maktabga,
Turdim qo'shib safga.

Dilim to'ldi quvonchga,
Orzularim eh, qanchal!
Ko'pdan niyat-havasim,
O'qishga zo'r ixlosim.

«Besh» bahoga o'qishimni,
Elga hissam qo'shishimni,
O'ylab dilim jo'shadi,
Bo'yimga-bo'y qo'shadi.



4

«Ering» endi.

Siz-chi, shundoq
Bering, endi.

Qani kalit?
Ko'rinmang siz.

Hadeb ko'zga
Urilmang siz,

Arzimasga
Qani, cho'zing.

Siz kalitni
Konfetlardan

Sizga deyin,
Rahmatimni

«Oq oltinlar»
Olib yeyin,

QO'ZIM

Yolg'on emas,
Chin so'zim.
Sezib qoldim,
Men o'zim.

Oxur to'la
Cho'p, bedaga,
Tekkan edi
Ko'p me'daga.

Qorib bersam
Yemaydi,
Ba-ba-balab
Timmaydi.

Qo'y-qo'zimning
G'amini yeb,
Nima qilsam
Ekan deb.



20

28

Qay birin maqtay bunda.

Yigitlarimiz bari yaxshi o'yinda,
Hech narsaga qaramadik,

To'p talashib charchamadik,
O'ynimiz qizigandan qizidi.

Taklif qildik «G'ayrat»imizni,
Balog'at yoshiga to'ldik.

Shahar chempioni bo'ldik,
Oltin fasl kuz edi,

Xursand bo'lib g'alabadan,
Uch yil o'tib oradan,

G'alabalarga biz ko'p erishdik,
Yangi chempionlarni kutdik.


Yaxshi o'ynashga xo'p tirishdik,
Yangi chempionlarni kutdik.

Aziz bolajonlar! Kundalik ehtiyojimiz uchun zarur bo'lgan pulning «uyi» qayerda ekanligi barchangizni qiziqtirishi tabiiy. Pul va turli qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, kredit-moliya masalalari, vaqtincha bo'sh mablag'larni to'plash, korxonalar va jismoniy shaxslarga kredit, ssuda berish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish ishlari bilan shug'ullanuvchi banklar – pullarning uyi hisoblanadi.

Istiqbol iqtisodda



HAMKORBANK




BANK XIZMATLARI

Hamidullo YO'LDO-SHEV, «Hamkorbank» aksiyadorlik tijorat banki, Yakkasaroy filiali boshqaruvchisi: – Odatda banklarning xizmatidan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo'jaliklar – barcha-barchasi uning mijozi hisoblanadi. Mijoz bilan hamkorlik, haqiqiy do'stlikning isboti sifatida besh qo'lning birligi ramzi bo'lgan «Hamkorbank» 1991-yil 1-sentabrdan o'z faoliyatini boshlagan. Ushbu bank 1992-yildan Rossiya Banklari Assotsiatsiyasi, 1995-yildan boshlab esa O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi a'zosi hisoblanadi. Bugungi kunda esa Jahon banki va Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish bankining O'zbekistondagi ishonchli vakillaridan biridir. Diyorimizning turli viloyatlarida bankning filiallari ishlab turibdi.

Bizning bankimiz bir necha yillardan buyon Jahon banki, Xalqaro Moliya Koorperatsiyasi hamda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Jahon bankining Bosh ofisi Vashingtonda, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining bosh ofisi Londonda joylashganini bolajonlarimiz yaxshi bilishadi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish uslublarimiz



PUL QAYERDAN KELADI?

Bank lotincha «banca» - sarrof peshtaxtasi so'zidan olingan bo'lib, qadimda banklar bo'lmagani bois bozorlarda sarroflar, deya nomlanuvchi kishilar o'tirishib, odamlarni qo'llaridagi oltin tanga va yirik pullarini maydalab, ayirboshlab berishgan. Diyorimizda birinchi bank 1875-yilda ishga tushirilgan. Ayni vaqtda O'zbekistonimizda faoliyat ko'rsatayotgan banklar soni 28ta bo'lib, ularning 800dan ortiq filiallari bor.

Sizlarni ana shunday banklardan biri Mustaqilligimiz tengdoshi bo'lgan «Hamkorbank» faoliyati bilan yana-da yaqinroq tanishtirish maqsadida uning Yakkasaroy filialida mehnat qilayotgan aka-opalaringiz bilan suhbatlashdik.



ularning andozalaridan olingan. Bu front ofis, bek ofis sistemasidir. Bu usul mijozlarimiz uchun juda qulay bo'lib, ularning har biri shaxsiy menejerga birlashtirilgan. Eng muhimi, mijozning barcha hisob-kitobi menejer yonida to'liq amalga oshiriladi. Bankimiz keng ko'lamda hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mijozlarga so'mda va xorijiy valyutalarda o'rta va uzoq muddatli qarz berish, aholidan muddatli omonatlar, kommunal to'lovlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning valyuta hisob raqamlaridagi mablag'larni xorijga o'tkazib

berish kabi bir qator xizmatlarni bajaradi.

–Kredit nima degani? Avtokredit qanday to'lanadi?

– Moliyaviy muassasa tomonidan mijozlarga ma'lum muddatga garov asosida o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish uchun beriladigan qarz - kredit deyiladi. Ushbu mablag' ma'lum muddat mobaynida kreditor tomonidan belgilangan foizlarda bankka asta-sekin to'lab boriladi.

Mijoz bank kreditidan foydalangan holda avtomobil sotib oladigan bo'lsa, uning qiymatini 50 foizini o'zi to'laydi. Qolgan 50 foizini esa bank to'lab beradi. Ushbu mablag' avtomobil uchun to'langani bois avtokredit deyiladi. Mijoz bank to'lab bergan avtokredit pulini belgilangan muddat mobaynida asta-sekin ma'lum bir foiz hisobida bankka to'lab boradi.

–Omonatlar-chi?

–Ular aholi qo'lidagi ishlatilmasdan bo'sh turgan pul mablag'larini foizli daromadlar to'lab berish sharti bilan banklarga jalb qilish. Bunda qabul qilingan omonat summasi oyma-oy bank foizlari hisobiga ko'payib boradi.

Shuhratjon XO'JAMBERDIYEV, front ofis boshlig'i: - Jamoamiz asosan yoshlardan iborat. Barchamiz tinimsiz o'qib izlanamiz. Bank sohasidagi har qanday yangilik e'tiborimizdan chetda qolmaydi. Ularni sohamizga joriy qilishga intilamiz.

Mashhura TO'YCHIYEVA, bosh hisobchi:- Bank kiritim-chiqim operatsiyalarini, oylik, choraklik balans hisobotlarini bexato tayyorlash asosiy vazifamizdir. «Tasvir», «Darakchi», «Osiyo tayms» kabi tahririyatlar, qo'shma korxonalar bizning mijozlarimiz hisoblanadi. Bankimiz xizmatidan foydalanish uchun kelgan hamkorlarimizning hisob-kitob operatsiyalarini har bir xodimimiz xushmuomalalik bilan bajaradi.

Eldor HAMROQULOV, bank menejeri:

- Mijozlarning ko'ngliga yo'l topish ishimizning negizi hisoblanadi. Ularga tezkor xizmat ko'rsatamiz. Bilganlarini o'rgatib, tegishli maslahatlar beramiz.

Aziz bolajonlar! Suhbatimiz davomida pullarning uyi hisoblanmish banklar haqida biroz bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'ldingiz. Oralaringizda kimlardir maktabni «a'lo» va «yaxshi» baholarga tugatib,

chet ellarga o'qishga borishi mumkin. Ularga kerakli pul mablag'lari esa albatta banklar orqali o'tkaziladi. Bu mablag'lar atigi 10 daqiqa ichida butun dunyo bo'ylab o'z egasiga yetib borar ekan. Demak, dunyodagi barcha banklar qatori diyorimizdagi banklarning faoliyati ham kundan-kunga rivojlanib, siz-u bizning hayotimizda asosiy o'rinlardan birini egallamoqda. Tengdoshlaringizdan kimlardir kelajakda pullarning uyi bo'lmish banklarda ishlashi yoki banklar orqali turli hisob-kitoblarni amalga oshirishi mumkin. Buning uchun hozirdanoq iqtisodiy bilimingizni mustahkamlab borib, tinimsiz o'qib-o'rganishingiz lozim. Buni «Hamkorbank»da mehnat qilayotgan barcha aka-opalaringiz ham ta'kidlashdi.

Biz esa ular bilan xayrlashar ekanmiz, ezgu ishlarida omdalar tiladik.

ONA O'ZBEKISTONIM BOR

«2006-yil – Homiyilar va shifokorlar yili»

Savob ishni har kim, har kuni qilishi lozim, deganlaridek, o'zgalar dardiga malham bo'lish, ularga beminnat yordam berish siz-u bizning doimiy burchimizdir. Keksalar, nogiron kishilarni ko'rganingizda yonlaridan aslo beparvo o'tmang. Ular hamisha ko'makka muhtoj bo'lishadi.

Bugungi kunda ko'plab xayrli ishlarni amalga oshirayotgan Toshkent shahar «Nogiron Bolalarni Rehabilitatsiya va Integratsiya qilish klubi» imkoniyati cheklangan farzandlari bor 3000ga yaqin oilalarni birlashtirib kelmoqda. Klub nodavlat, notijorat xayriya jamg'arma tashkiloti bo'lib, mehr-muruvvat, xayr-ehsonlar evaziga faoliyat ko'rsatadi. Uning Mirzo Ulug'bek, Bektemir, Hamza, Yunusobod, Shayxontohur, Sergeli,

Sobir Rahimov, Chilonzor va Yakkasaroy tumanlarida bo'linmalari bor.

«3-dekabr – Xalqaro Nogironlar huquqini himoya qilish kuni»ga bag'ishlab «Nur» kafesida o'tkazilgan klub tadbirlarida qatnashib, «Ardus» savdo do'koni, «Achilov tish kasalliklari» klinikasi, «Nur», «Bashkent», «Marhamat» kafelari, «Vostok», «Jo'rayev», «Neman» qo'shma korxonalari, «Bionorika» dorixonasi va boshqa ko'plab homiyilarga rahmatlar aytdim.

–75 yil teatrdan faoliyat ko'rsatdim. Ko'plab shaharlarda ijodiy safarlarda bo'ldim. Ammo ona O'zbekistonimizchalik mehri issiq mamlakat hech qayerda yo'q, desam aslo mubolag'a qilmagan bo'laman. Atrofimda shuncha mehribonlarim bor. Ular begonalar emas, balki mening

qondoshlarimdir. Ushbu tadbirda o'tirib, ko'zlarimga yosh quyildi, bular sevinch yoshlari. Qarang, qo'limda hassa bo'lsa ham davrada barcha farzandlarim bilan raqs tushayapman. Ular ham xuddi men kabi bu shodiyonadan quvonishmoqda, - deydi Xalq artisti Galiya IZMAYLOVA.

–Qarang, menga kattakon o'yinchoq sovg'a qilishdi, - biyrongina so'zlaydi kichkina Svetlana ayiqchasini bag'riga bosib.

Tadbirda o'tiribman-u, xasta dillar o'zlarining yolg'iz emasliklarini, g'amiga sheriklar borligi va ularga yordam qo'lini uzatadigan insonlar ko'pligini his qilayotganliklaridan baxtiyor edim.

Jamila HAYDAROVA.

Rasmlar muallifi V.MYASNIKOV.

«Salomatlik garovi» tanloviga

MAKTABDA MISH-MISH...

Nima emish, 9 yildan beri oralaridan qil ham o'tmagan qalin dugonalar Dildora bilan Nazokat urishib qolishganmish. Kimlardir ishonishdi bu gapga, kimlardir, «yozda qor yog'ibdi desangiz, ishonaman, lekin bu gapga ishonmayman», deya turib olishdi. Bu mish-mishning nechog'li to'g'riligi haqida bahs bog'lashganlar ham bo'ldi.

Aslida ham shunday bo'lgandi. Tabiatan og'ir-vazmin, mulohazali, har bir gapini o'ylab gapiradigan Dildoraning fe'l-atvori keyingi paytlarda ancha o'zgarib qoldi. Sinfdagi eng sho'x, to'polonchi Shokirning ham «tili»ni topa oladigan bu qiz sinfdoshlari u yoqda tursin, hatto o'qituvchilariga ham ters gapiradigan odat chiqardi. Bu hol sinf rahbari Barno opani ham tashvishga sola boshladi. Chunki Dildora uning «o'ng qo'li» edi-da.

Bugun esa eng yaqin dugonasidan arazlab, uyiga ketib qolibdi.

Dildoraning jahli uyiga kelib ham bosilmadi. Alamini o'yinchoqlarini yoyib, «xola-xola» o'ynab o'tirgan singlisi Donodan oldi:

–Kap-katta qiz bo'lib qolding, uyni yig'ishtirib o'tirish o'rni, hammayoqni yoyganing-yoygan, – deya baqira ketdi xonasiga kirar-



kirmas. Har kuni biron shirinlikmi, o'yinchoqmi ko'tarib kelib uni erkalatadigan opasidan bunday muomalani kutmagan Dononing ko'zlarida yosh halqalandi.

Baqir-chaqirdan xavotirlanib, xonaga onasi Dilbar opa kirganidan keyin ham Dildora jahl otidan tushmadi.

–Tinchlikmi, nega jig'ibiyron bo'lyapsan? – so'radi onasi ajablanib.

–Manavini ko'rmaysizmi, hammayoqni ivirsitib yuboribdi...

–Shu sovuqda ko'chaga chiqaman degandi, men chiqarmadim. Xonangga kirib, o'yinchoqlaringni o'ynab o'tir, degandim. Shunga shunchami?..

Dilbar opa qizlarini tinchlantirgan bo'ldi-yu, Dildoraning o'zini tutishidan biroz tashvishga tushib qoldi. Eng yaqin dugonasi bilan xafalashib qolganini eshitib, xavotiri yana-da ortdi. O'smirlik chog'ida shunday bo'lib tursa kerak-da, deya ovutgan bo'ldi o'zini.

Dilbar opalarning bir devor qo'shnisi Gulnora opa Halilova bolalar shifokori, uzoq yillardan buyon Respublika pediatriya ilmiy-texnik institutida ishlaydi. Dilbar opa o'sha kuni biroz tobi qochgan qo'shnisi Gulnora opani ko'rishga chiqmaganida, qizi Dildorani shifokorga ko'rsatish xayoliga ham kelmagan bo'lardi.

–Ha, yurishibdi, baqir-chaqirlari sizlarnikiga ham eshilib turgandir-a? – dedi bolalaringiz yaxshi yurishibdimi deya hol-ahvol so'ragan qo'shnisiga biroz xijolatomuz. –Dildora qizim biroz tajangroq bo'lib qoldi-da. Avvallari singlisining har qancha erkliklarini ko'tarardi, hozir esa unga bir gap kamlik qilyapti, ikkinchisi ortiqcha. Qani, bir yarimta gapni topib ko'ring-chi... Maktabdan keliboq, charchab ketyapman, deya yotib olaveradi.

–Qizingizning buqog'i yo'qmi, uni endikrinolog shifokoriga hech ko'rsatganmisiz? – so'radi Gulnora opa. –Hozirgi kunda respublikamizda yod yetishmasligi natijasida qalqonsimon bez xastalıkları juda ko'paygan. Xalq tili bilan aytganda, buqog'i bor bemorlar juda tajang, badjahl bo'lib qolishadi. Jahllari chiqqanda, qo'lga ilingan narsalarni otib yuborishdan ham toyishmaydi. Ularda soch to'kilishi, holsizlanish, terining qurib qolishi kabi holatlar kuzatiladi. Bunday bemorlar saryog', baliq kabi mahsulotlarni ko'proq yeyishlari lozim. Inson organizmiga yod hamda temir moddasi yetishmasligini bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti. Kundalik

ishlatiladigan tuzimiz yod bilan boyitilyapti.

Davlatimiz tomonidan qo'lab-quvvatlangan «unni temir moddasi va mikroelementlar bilan boyitish» dasturi ishlab chiqildi.

Kundalik ovqatga ishlatilayotgan tuzingizga mana bu suyuqlikdan bir tomchi tomizib tekshirib ko'ring-a. Agar u siyoh rangiga kirsas, demak, tuzingiz yodlangan bo'ladi. Yana, temirga boyitilgan undan ishlatishga harakat qiling. Dildoraning holsizlanib yotib olaverishi temir moddasi yetishmasligidan ham bo'lishi mumkin.

Dilbar opa uyiga chiqiboq, yelim xaltasining ustiga «yodlangan» deb yozilgan tuzini tekshirib ko'rdi. Negadir uning rangi o'zgarmadi. Qo'shnisiga ko'rsatgandi: «Tuzingiz tarkibidagi yod miqdori yetarli darajada emas». Afsuski, shunday noinsof tadbirkorlar ham uchrab turadi. Xaltaning ustiga katta harflar bilan «YODLANGAN» deb yozib qo'yishibdi-yu, aslida...

Dilbar opa ertasigayoq qizini shifokorga olib borgandi, qo'shnisi haq bo'lib chiqdi. Shifokor ham aynan shu tashxisni qo'ydi. Yana qizida kamqonlik xastaligi ham aniqlandi. Uyga qaytishda do'konga kirib tuz xarid qildi. Avvalgidek pulini to'lab ketavermay, shu yerning o'zida yodlanganlik darajasini tekshirib ko'rib oldi.

Kechki ovqat chog'ida bor gapni turmush o'rtog'iga yotig'i bilan tushuntirdi. 1-navli boyitilgan un tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan barcha darmondorilar va temir moddasi bo'lishini ta'kidlashni ham unutmadi. Shunday qilmasa, oliy navli oq unning bir qopini olib berganimga hali hech vaqt bo'lgani yo'q-ku, deya xunob bo'lib, temirga boyitilgan un olib bermasliklari aniq edi-da.

Hozir Dildora o'zini ancha tetik his qilyapti. Bilib-bilmay xafa qilib qo'rgan ustozlari, sinfdoshlari, singlisidan kechirim so'radi. Nazokat bilan ham yarashib oldi. Ularning inoqligiga yana hamma havas qilyapti.

Feruza JALILOVA.

TABRIKLAYMIZ!

Yaqinda oilamizda quvonchli voqea sodir bo'ldi. Akam bilan kennoyim o'g'illik bo'lishdi. Ularni muborakbod etib, jiyanchamga bag'ishlab, quyidagi she'rimni yozdim.

JIYANCHAM

Juda sabrlansizlanib,

Kutdik seni hammamiz.

Mana kelding, endi biz,

Jiyan hamda ammamiz.

Xush kelibsan, chaqaloq,

O'z uyingga marhabo.

Sening uchun bugungi,

Kuy-qo'shiqlar dilrabo.

Bugun otang qalbiga,

Quvonch to'ldi bir jahon.

Sevinchdan ko'zlari yosh,

Volidang Zubaydaxon.

Buvalaring quchoqlab,

Sog'inchlarin aritar.

Biri tarbiyalasa,

Biri Islom tanitar.

Dilbaroy buvijoning,

Yana biri Lolagul.

Ulg'aygach har ikkisin,

Hurmatin, xizmatin qil.



Munisa KOMILOVA,
Poytaxtdagi 14-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruz JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston

matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N: J 3097

Dizayner va

sahifalovchi:

Fazliddin

SHOYODGOROV

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10